

## PASHTU TILIDA TARTIB SONLARNING YASALISHI

Abduraxmanov Isfandiyor

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajyor-o 'qituvchisi

**Annostatiya:** Pashtu tilida tartib sonlar faqat morfologik usulda, ya'ni sanoq sonlarga tartib son yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi. Tartib sonlarni boshqa usulda yoki boshqa so'z turkumidan yashashni umuman kuzatilmaydi.

**Kalit so'zlar:** tartib sonlar, zwarakay, morfologik usul, suffiks.

Pashtu tilida tartib sonlar faqat morfologik usulda, ya'ni sanoq sonlarga tartib son yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi. Tartib sonlarni boshqa usulda yoki boshqa so'z turkumidan yashashni umuman kuzatilmaydi.

Pashtu tilida son haqida fikrlar turlichaligini aytib o'tilgan edi, bu qaramaqshilik tartib son yasalishida ham davom etadi. Barbara Robsin va Habibullah Tegay "A Reference Grammar of Pashto" va Anne Boyle David "Descriptive grammar of pashto and its dialects" kitoblarida taritib sonlar sanoq sonlarga **-ه [həm]** suffiksi qo'shilib yasalishi , jins kategoriyasini bildiruvchi belgi turlangan paytda qo'shilishini ko'rishimiz mumkin. Ammo Siddiqillo Rishtinning "رامرگ د وېښپ" , A.L.Gryunbergning "Очерк грамматики афганского языка" va K.A.Lebedevning "Грамматика языка пушту" kitoblarida pashtu tilida tartib sonlar muzakkarr jins shaklini bildirish uchun undosh tovushga tugagan sanoq sonlarga **-ه [həm]** suffiksini yoki undosh tovush bilan tugagan sonlarning muannas jins shakli **-هه [həma]** suffiksni qo'shish orqali yasalishini uchratamiz. Misollar:

Zwarakay [ə] tovushiga tugagan sanoq sonlardan tartib son yasalganda oxirgi zwarakay tovushi va uning yozuvdagagi belgisi **ه** harfi tushib qoladi. Anne Boyle David fikricha unli bilan tugagan sanoq sonlarga tartib son yasovchi suffiks yasalganda oxirgi tovush tushib qoladi. Unli tovushi bilan tugagan sanoq sonlarga tartib son yasovchi suffiks qo'shilganda tovush va harf ortishi kuzatiladi deyilsa Anne Boyle David "Descriptive grammar of pashto and its dialects" kitobida, Siddiqillo Rishtinning "رامرگ د وېښپ" kitobida va A.L.Gryunbergning "Очерк грамматики афганского языка" kitobida unli [ā] va [i] tovushi bilan tugagan sanoq sonlarga tartib raqam yasovchi suffikslar **-هه [yəm]** va **-ههه [yəma]** qo'shiladi deyiladi.

دوه [dwa] ikki so'ziga muzakkarda **ه** [həm] suffiksini, muannasda **ههه [həma]** suffiksini qo'shish orqali yasaladi va bunda sanoq son oxiridagi qisqa [a] tovushi talaffuzda saqlanib qoladi, ammo yozuvda uning harf belgisi tushib qoladi degan ma'lumotni keltiradi A.L.Gryunberg o'z kitobida . Shunday fikrni o'zbek afg'onshunos olimi professor I.Inomxojayev ham keltiradi. Ammo Anne Boyle David fikricha tartib yasovchi sufikksini qo'shganda [h] ortadi degan fikrni ilgari suradi. دوههه [dwahəm], دوهههه [dwahəm] ikkinchi.

دوه [dwahəm] bilan parallel ravishda [dwa] dan م[-əm] ، -ه [əma] suffiksni qo'shish orqali yasalgan shakli میدو [dwayəm], مه [dwayəma] ikkinchi shakllari ham ko'p foydalaniladi.

ىدر [dre] uch sanoq raqamiga tartib son yasovchi suffiksi qo'shilganda ى[y] harfi ortadi. مه ىدر [dreyəm], مه ىدر [dreyəma] uchinchi.

Bunga parallel ravishda [dre] uch sanoq soniga tartib son yasovchi suffiks qo'shilganda ى[e] harfi imloda tushib qolgan, ammo talaffuzda saqlanib qolgan shakli میدر [dreyəm], مه [dreyəma] ham qo'llaniladi.

Pashtu olimlarining ba'zilari م[-əm] suffiksi orqali yasladi desa, ba'zilari م[-əm] va مه [əma] suffikslari orqali yasaladi deb o'tishgan. Ammo bizning fikrimizcha ham م[-əm] suffiksi orqali yasali va jins ketegoriyasini bildiruvchi qo'shimcha keyin qo'shiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто) . –Ленинград.: 1987. – 239 с.
2. Anne Boyle Devid. Descriptive grammar of Pashto and its dialect. –Germany.: 2014. – 532 p.
3. Inomxojev R. Pashtu tili grammatikasi (Fonetika va morfologiya). –Toshkent.: 2020. – 238 b.
4. م ۱۹۹۴. ورب بن پ. رامرگ ت و بش پ. نیت بنر الله قی صد.